



# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

2025- yil 1- mart holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya  
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar  
bazasi asosida shakllantirildi*




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025- yil 1- mart holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 35,7 mingtani tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 29,2 mingtani tashkil etdi.

Shuningdek, ushbu davrga 64,6 mingtadan korxonalar ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,2 foizni tashkil etdi.

### Korxonalar va tashkilotlar soni to'g'risida umumiy ma'lumotlar (1- mart holatiga)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil yanvar-fevral oyida)


2025- yil yanvar-fevral oyida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1412 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda. Jumladan: Yozyovon tumani (55 taga), Bag'dod tumani (39 taga) va Beshariq tumani (39 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 211 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


### Hududlar kesimida soni (birlikda)

208	Farg'ona shahar
93	Qo'qon shahar
88	Yozyovon tumani
84	Quva tumani
77	Buvayda tumani
77	Beshariq tumani
73	Toshloq tumani
71	Qo'shtepa tumani
71	O'zbekiston tumani
70	Bag'dod tumani
64	Uchko'prik tumani
63	Marg'ilon shahar
62	Oltiariq tumani
59	Farg'ona tumani
57	Rishton tumani
53	Quvasoy shahar
48	So'x tumani
48	Furqat tumani
46	Dang'ara tumani

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil 1- mart holatiga 35,7 mingtani tashkil etdi, ulardan 29,5 mingtasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,7 foiz, sanoat – 16,3 foiz, qurilish – 6,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,5 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Farg'ona shahrida – 17,6 foiz, Qo'qon shahrida – 10,0 foiz, Marg'ilon shahrida – 7,6 foiz, Oltiariq tumanida – 5,6 foiz va Uchko'priq tumanida – 5,1 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


## Hududlar kesimida soni (birlikda)

6 293	Farg'ona shahar
3 585	Qo'qon shahar
2 713	Marg'ilon shahar
2 016	Oltiariq tumani
1 820	Uchko'priq tumani
1 640	Farg'ona tumani
1 596	Quva tumani
1 594	O'zbekiston tumani
1 561	Rishton tumani
1 475	Dang'ara tumani
1 472	Toshloq tumani
1 420	Buvayda tumani
1 381	Bag'dod tumani
1 322	Qo'shtepa tumani
1 301	Quvasoy shahar
1 286	Beshariq tumani
1 227	Yozyovon tumani
1 051	So'x tumani
946	Furqat tumani

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil yanvar-fevral oyida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda.

2025- yil yanvar-fevral oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 164 ta bo'lib, shundan:

-mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 160 ta;

-yirik korxonalar 4 tani tashkil etdi.

### Hududlar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

### Yillar kesimida soni (birlikda)

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo


Tashish va saqlash

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

Boshqa turlar



(2025- yil 1- mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- mart holatiga 29,5 mingtani tashkil etdi, ulardan 29,2 mingtasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.



Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 40,8 foiz, sanoat – 19,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 4,7 foiz, qurilish – 7,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,6 foiz, tashish va saqlash – 4,6 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,6 foiz, boshqa turlari – 10,9 foiz.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

## Yillar kesimida soni (birlikda)





(2025- yil yanvar-fevral oyida)

Mamlakat iqtisodiyoti "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar-fevral oyida qishloq, o'rmon va baliqchilik sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 65 tadan 199 taga (o'sish 134 taga) ko'paydi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (17,6 foiz), Qo'qon shahrida (10,4 foiz), Marg'ilon shahrida (8,0 foiz), Oltiariq tumanida (5,9 foiz) va Uchko'prik tumanida (5,2 foiz) faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)






### Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

(2025- yil 1- mart holatiga)


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko‘p qismi Farg‘ona shahar (9,0 foiz), Beshariq tumani (8,1 foiz) va So‘x tumanida (8,0 foiz) faoliyat ko‘rsatmoqda.

#### Hududlar kesimida soni (birlikda)



#### Yillar kesimida soni (birlikda)



1 380

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

51

Baliq ovlash va akvakultura

11

O‘rmonchilik va yog‘och tayyorlash



(2025- yil 1- mart holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 16,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 2,8 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 2,0 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash va 1,1 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tashkil etgan.

## Hududlar kesimida soni ( birlikda)



## Yillar kesimida soni ( birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 49,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 28,6 foiz ulushni tashkil etdi.
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 21,7 foiz ulushni tashkil etdi;

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- mart holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,5 foizi yoki 11 969 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 58,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 33,2 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,6 foiz ulushni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	1724
Qo'qon shahar	1320
Marg'ilon shahar	1015
Uchko'prik tumani	662
Oltiariq tumani	618
Farg'ona tumani	568
Quva tumani	556
Buvayda tumani	554
Toshloq tumani	539
Quvasoy shahar	521
O'zbekiston tumani	521
Dang'ara tumani	515
Yozyovon tumani	473
Rishton tumani	463
Qo'shtepa tumani	451
Beshariq tumani	411
Bag'dod tumani	400
So'x tumani	383
Furqat tumani	339

## Yillar kesimida soni (birlikda)



7 002

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

3 993

1 038

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash



(2025- yil 1- mart holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga 1 956 taga yetib, ularning 1 949 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:



- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,3 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,7 foiz ulushini tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	518
Qo'qon shahar	169
Rishton tumani	128
Marg'ilon shahar	120
Oltiariq tumani	120
Bag'dod tumani	100
Farg'ona tumani	99
Quva tumani	87
O'zbekiston tumani	85
Quvasoy shahar	71
Toshloq tumani	69
Dang'ara tumani	64
Uchko'prik tumani	62
Qo'shtepa tumani	59
Buvayda tumani	50
Furqat tumani	48
Yozyovon tumani	40
Beshariq tumani	38
So'x tumani	29

## Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)

## Hududlar kesimida soni (birlikda)


Farg'ona shahar	185
Qo'qon shahar	62
Marg'ilon shahar	58
Rishton tumani	35
Oltiariq tumani	35
Buvayda tumani	29
Quva tumani	24
Toshloq tumani	23
Qo'shtepa tumani	20
Bag'dod tumani	17
Uchko'prik tumani	16
O'zbekiston tumani	12
Beshariq tumani	12
Farg'ona tumani	11
Quvasoy shahar	10
So'x tumani	10
Dang'ara tumani	7
Furqat tumani	5
Yozyovon tumani	5

2025-yil 1-mart holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 71,7 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 25,0 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,3 foizni tashkil etdi.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



 <p>Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar</p>	181	232	<p>Aloqa</p> 
 <p>Noshirlik faoliyati</p>	80	64	<p>Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat</p> 
 <p>Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish</p>	12	7	<p>Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirish</p> 

(2025- yil 1- mart holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 051 ta yoki 72,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 93,7 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri keladi;


yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 3,9 foizini tashkil etdi.;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,4 foizni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida soni (birlikda)



## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 355



## Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

34



## Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

57



(2025- yil 1- mart holatiga)


**Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Oltiariq tumani	343
Farg'ona shahar	247
Qo'qon shahar	147
Marg'ilon shahar	72
Quvasoy shahar	63
Toshloq tumani	56
O'zbekiston tumani	50
Farg'ona tumani	46
Uchko'prik tumani	44
Beshariq tumani	41
Quva tumani	41
Dang'ara tumani	41
Qo'shtepa tumani	37
Buvayda tumani	28
Rishton tumani	27
Bag'dod tumani	24
So'x tumani	24
Yozyovon tumani	22
Furqat tumani	21

2025- yil 1- mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 74,3 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 23,7 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,8 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,2 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni (birlikda)**




**Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli  
bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
(2025- yil 1- mart holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**



(2025- yil yanvar-fevral oyida)


Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Yillar kesimida soni (birlikda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- mart holatiga)


Amaldagi 29,5 mingta tijorat korxonalaridan 2025- yil 1- mart holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 20,1 mingtani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkin, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni, savdo – 41,4 foiz, sanoat – 18,1 foiz, qurilish – 9,0 foiz, tashish va saqlashda – 6,1 foizni tashkil etdi.


## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



## Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil yanvar-fevral oyida)

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1-mart holatiga)


2025- yil 1- mart holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Farg'ona shahrida – 894 ta, Marg'ilon shaharida – 352 ta va Farg'ona tumanida – 351 ta.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 2 268 ta, sanoat – 915 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 466 ta va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 279 ta.

### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Farg'ona shahar	894
Marg'ilon shahar	352
Farg'ona tumani	351
So'x tumani	338
Bag'dod tumani	333
Buvayda tumani	316
Oltiariq tumani	315
Rishton tumani	302
Quva tumani	292
Uchko'prik tumani	269

Qo'qon shahar	208
Beshariq tumani	191
Toshloq tumani	190
O'zbekiston tumani	161
Quvasoy shahar	148
Dang'ara tumani	140
Yozyovon tumani	135
Qo'shtepa tumani	127
Furqat tumani	119

(2025- yil yanvar-fevral oyida)


Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Yillar kesimida soni (birlikda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)






## Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	11	Dang'ara tumani	3
Bag'dod tumani	7	Qo'qon shahar	3
So'x tumani	6	Qo'shtepa tumani	2
Farg'ona tumani	6	Buvayda tumani	2
Oltiariq tumani	5	Toshloq tumani	2
Quva tumani	5	Quvasoy shahar	2
Farg'ona shahar	5	Uchko'prik tumani	1
Beshariq tumani	3	Furqat tumani	1
O'zbekiston tumani	3	Yozyovon tumani	1

(2025- yil 1-mart holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- mart holatiga ko'ra 3,8 mingtani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,9 foiz, sanoat – 31,1 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 16,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,4 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Rishton tumanida – 11,4 foiz, Farg'ona shahrida – 10,9 foiz va Oltiariq tumanida – 8,7 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

**Yillar kesimida soni (birlikda)****Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)****Hududlar kesimida soni (birlikda)**

(2025- yil 1- mart holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Rishton (11,5 foiz), O'zbekiston (10,6 foiz) va Quva (9,2 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida soni (birlikda)

Rishton tumani	1230
O'zbekiston tumani	1127
Quva tumani	978
Farg'ona tumani	889
Uchko'prik tumani	857
Bag'dod tumani	802
Oltiariq tumani	789
Beshariq tumani	675
Toshloq tumani	566
Quvasoy shahar	565
Qo'shtepa tumani	444
Dang'ara tumani	444
Yozyovon tumani	397
Furqat tumani	390
Buvayda tumani	362
Farg'ona shahar	94
So'x tumani	72
Marg'ilon shahar	1

### Yillar kesimida soni (birlikda)





## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot


(2025- yil yanvar-fevral oyida)

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

2025- yil yanvar-fevral oyida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni o‘shirish sur‘ati 2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda 161,5 foizni tashkil etdi.


### Yillar kesimida soni (birlikda)



### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



### Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1-mart holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 466 ta korxonalaridan 199 tasi qo'shma korxonalar va 285 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

**Yillar kesimida soni (birlikda)**

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)**



**Hududlar kesimida soni (birlikda)**

Farg'ona shahar	159
Qo'qon shahar	58
Marg'ilon shahar	40
Uchko'prik tumani	31
Quvasoy shahar	30
Farg'ona tumani	22
Beshariq tumani	18
Oltiariq tumani	16
Toshloq tumani	16
Dang'ara tumani	15

Quva tumani	14
Bag'dod tumani	12
Rishton tumani	11
O'zbekiston tumani	11
Buvayda tumani	9
Furqat tumani	7
So'x tumani	6
Yozyovon tumani	5
Qo'shtepa tumani	4



Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 105,2 foizga oshdi.

Yetakchi o'rinni 142 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 29,3 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 20,2 foiz), Turkiya (ulushi 12,8 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,0 foiz) va Qirg'iziston (ulushi 6,2 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

( 2025- yil 1- mart holatiga, birlikda )



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar jami soniga nisbatan eng katta ulushi Farg'ona shahri 32,9 foiz, Qo'qon shahri – 12,0 foiz, Marg'ilon shahri – 8,3 foiz, Uchko'prik tumani – 6,4 foiz va Quvasoy shahri – 6,2 foiz to'g'ri keladi.

(2025- yil 1- mart holatiga)

### qo'shma korxonalar soni


### xorijiy korxonalar



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

( 2025- yil 1- mart holatiga, birlikda )



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.


**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagi** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- mart holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxslar haqidagi ma’lumotlar bazalari o‘zaro bixillashtirildi.*



## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrarni yuritish bo'limi  
Tel.:(73) 241-96-46

PRESS-RELIZ

